

MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVON-UL LUG‘ATIT TURK” ASARIDA SHAKLDOSH SO‘ZLARNING IFODALANISHI

Quyanov Samandar Sayliyevich

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining yuksalishi uchun beqiyos xizmatini qo‘shgan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-ul lug‘atit turk” asarida uchraydigan omonim so‘zlar tahlili haqida qarashlar aytib o‘tiladi. Shakldosh so‘zlarning tilshunoslik uchun diaxronik kengligi borasida to‘xtalinadi.

Kalit so‘zlar: qomusiy asar, polisemiya, omonimiya, atash sememalari, fe‘l, omoleksema.

Tilimiz qadimgi davrlardan boshlab serqirraligi bilan ajralib turadi. Buni biz ajdodlarimizning bizga qoldirgan meroslarida ham ko‘rishimiz mumkin. Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asr madaniyatining buyuk arboblardan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o‘rganish sohasida mashhur ekanligi barchamizga ma‘lum. Uning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan buyuk asar hisoblanadi. “Devonu lug‘atit turk”ni o‘sha davrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan turkiy xalqlar hayoti haqidagi qomusiy asar deb atash mumkin. Bu asar ustida tadqiqotlar olib borgan Fitrat, S. Mutallibov, I. V. Stebleva, V. V. Reshetov, G‘. Abdurahmonov, A. Rustamov kabi olimlar Mahmud Koshg‘ariy qadimgi turkiy tillarni o‘rganishga buyuk hissa qo‘shgan o‘z davrining o‘ta bilimdon olimi ekanligini ta‘kidlaydilar. “Devonu lug‘atit turk” 3 tomda o‘zbek tilida nashr etilgan. Hozirgi zamon jahon ilmiy jamoatchiligi XI asr buyuk olimi Mahmud Koshg‘ariy qiyosiy tilshunoslikning asoschisi deb tan oladi.

Asarda 11-asrdagi shaharlar, qishloqlar, dengiz, ko‘llar, turkiy qabilalar va urug‘lar haqida, urug‘larning ijtimoiy ahvoli, kelib chiqishi, nomlanishi, ichki urug‘ va toifalari, ularning joylanishi, urf-odatlar, til xususiyatlari haqida batafsil ma‘lumotlar beriladi. Bundan tashqari, hayvonot va o‘simliklari, ularning nomlanishiga to‘xtalib o‘tadi, astronomik ma‘lumotlar, burj va muchal haqida ham ma‘lumotlar bor. „Devonu lug‘otit turk“da ayniqsa qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma‘lumotlar ancha batafsil berilgan. Bunda har so‘zning ma‘nolari (polisemiya, omonim, sinonim,

antonim va arxaik soʻzlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim soʻzlarning etimologiyasiga toʻxtalib oʻtadi. Tovushlar (fonemalar)ning taxlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, choʻziq va qisqa unlilar, ularning urugʻ tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida soʻz turkumlarini, davr anʼanasiga koʻra, 3 soʻz turkumiga: feʼl, ism, bogʻlovchiga boʻlib, ularning yasaliş va turlanish yoʻllarini koʻrsatib oʻtadi. „Devonu lugʻotit turk“da 250 dan ortiq maqol va matallar, oʻnlab sheʼriy parchalar keltirilgan.

V. V. Bartold „Devonu lugʻotit turk“dan oʻz ilmiy ishlarida keng foydalanganini sharqshunos S. Volin koʻrsatib oʻtgan. Tilshunos olim V. I. Belyayev „Devonu lugʻotit turk“ haqida shunday yozadi: „Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan... Muallif bergan maʼlumotlar... arxeologik kashfiyotlar bu maʼlumotlarning aksariyatini isbot etmoqda“. Nemis sharqshunosi K. Brokkelman „Devonu lugʻotit turk“ asarini 1928-yil nemis tiliga tarjima qildi. Maʼlumki, asarda 7500 dan ziyod turkiy soʻz va iboralar izohlangan boʻlib, unda har bir soʻzning oʻziga xos xususiyatlari: omonimi, sinonimi, antonimi va koʻp maʼnoliligi batafsil tavsiflanadi. Ayniqsa, shakliy oʻxshash boʻlgan, bir necha soʻz sifatida eʼtirof etilgan, ammo maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar – leksik omonimlar alohida tarzida beriladi va sheʼriy parchalar yoxud maqollar tarzidagi misollar asosida izohlanadi. Masalan:

Külsä kishi atmä aḡar örtär külä

Baqqil aḡar ezgülikün agʻzin külä

Maʼnosi: „*Kishini oʻzingga kulib qaragan holda koʻrsang, yaʼni birov senga kulib boqsa, sen uning yuziga kuydiradigan issiq kul sochma, sen ham kulib boq, yaʼni yaxshilikka yaxshilik qil*“ kabi.

Mazkur sheʼriy parchada *kül* soʻzi yordamida feʼl va ot soʻz turkumlari orasida shakldoshlik hodisasi yuzaga kelganligini koʻrishimiz mumkin.

„Soʻzlarning semantik taraqqiyoti omonimlarni vujudga keltirishi mumkin. Bu hol koʻp maʼnoli soʻz maʼnolari oʻrtasidagi bogʻlanishning yoʻqolishi natijasida boʻladi“. Shuningdek, metaforik yoʻl bilan hosil boʻlgan semema davrlar oʻtishi bilan oʻziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil holga kelishi, omonimik tabiatga ega boʻlishi mumkin. Masalan:

Bars I „qoplon“;

Bars II „turkcha oʻn ikki muchal yillaridan birining nomi“ (I, 234);

Bars III „chivin, pashsha chaqishidan yoki eshakem boshlanishida terida paydo boʻlgan paysa, shish“ (I,235).

Bunda *bars I* va *bars II* shakldosh soʻzlari dastlab koʻp maʼnoli soʻz boʻlib, ular maʼnosi orasida bogʻliqlik boʻlgan. Vaqt oʻtishi natijasida ular orasidagi bogʻliqlik yoʻqolib, ular omonim soʻzlarga aylangan.

Tilshunos olim H.Dadaboyev asardagi omonim soʻzlarni soʻz turkumlari jihatidan:

1) ot turkumi (tub, yasama);

2) ot va sifat;

3) ot va boshqa soʻz turkumlari;

4) ot va undov soʻzlari oʻrtasidagi shakldoshlik;

5) feʼl turkumiga xos leksemalar shakldoshligiga boʻlgan holda tahlil qiladi

„Devonu lugʻotit turk“ asarida feʼl soʻz turkumiga oid shakldosh soʻzlar ham anchaginani tashkil etadi.

Feʼl turkumiga oid omonimlar:

Ürdi (urdi) I – *pufladi*. *Ol ot ürdi* – u olov va boshqa narsalarni *pufladi*.

Ürdi (urdi) II – *it ürdi*, yaʼni *it hurdi* maʼnosida.

Ürdi (urdi) III – *ol qulin ürdi* – u *qulini* va *boshqalarni urdi* maʼnosida.

„Devon“da holat feʼllariga nisbatan harakat feʼllarining omonimligi koʻproq kuzatilganligini koʻrish mumkin.

Uditti (uditdi) I – *uxlatdi*. *Ol meni uditti* – u meni *uxlatdi*. (*udittur*, *uditmaq*)

Uditti (uditdi) II – *ol yogʻrut uditti* – u qatiq *ivitdi*, *ol uditma uditti* – u *pishloq qildi*.

Uditti (uditdi) III – *ol ot uditti* – u oʻtni oʻchirdi.

Uditti soʻzi hozirgi kunda eskirgan soʻz boʻlib, u „Oʻzbek tilining izohli lugʻati“da uchramaydi. Ammo *uxlatmoq*, *ivitmoq* va *oʻchirmoq* feʼllarining izohi lugʻatda keltirib oʻtilgan.

Shuningdek, „Devon“da *ülätti(ulatti)*, *inätti(inatti)*, *olturdi (oʻlturdi)*, *estürdi(esturdi)*, *üstärđi(ustardi)*, *edgärđi(edgardi)*, *ewlärđi(evlandi)*, *irpädi (irpadi)*, *ayadi (ayadi)* kabi yuzlab shakldosh feʼllarni uchratish mumkin.

Asarda barcha soʻz turkumlariga oid omoleksemalarni uchratish mumkin hamda ular bir turkum doirasida ham, turli turkumlar doirasida ham yuzaga kelishini lugʻatdan bilib olishimiz mumkin. Bu haqida T.Sultonov O.Anorqulovanning maqolalarida «Devon»da qoʻllangan *but*, *köch*, *töz*, *bosh* kabi omonim soʻzlarga diqqat qaratilgan.

Koʻrinadiki, omonimlar til taraqqiyotining qonuniyatlariga mos ravishda, ichki va tashqi omillarga bogʻliq holda yuzaga keladi. Shuningdek, ularni „tilning leksik va grammatik sistemasini toʻldiruvchi omil sifatida baholanishi metodologik jihatdan asosli boʻladi“.

Boshqa turkumga xos omonim soʻzlar :

- Ol - 1) u - kishilik olmoshi; 2) u – ko‘rsatish olmoshi; 3) ot va fe‘llarga qo‘shiladigan ta‘kid qo‘shimchasi;
- Ot - 1) o‘t, o‘simlik; 2) hayvonlar yeydigan har turli o‘t, xashak; 3) dori, davo; 4) og‘u, zahar.
- Ich - 1) har narsaning ichi; 2) jigarga yopishib turadigan nozik et;
- Uch - 1) narsaning uchi; 2) chegara, el, mamlakat chegarasidagi viloyat; 3) biror narsaning tugalishi, bitishi;
- O‘z – 1) o‘z, o‘zi; 2) yog‘; 3) dara, tog‘lardagi vodi;
- El – 1) el, viloyat; 2) ochiqlik, bo‘shlik; 3) bir turli ot nomi; 4) ikki shox orasidagi kelishuv;

E‘tiborli jihati shundaki, so‘zlarni morfologik va leksik omonimligi bo‘yicha guruhlanishi tabiiy tilni qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahmud Koshg‘ariy asari, o‘zi ta‘kidlashicha, “oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma‘lum bo‘lmagan alohida bir tartibda” tuzilgan. Unda ko‘p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko‘rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug‘dirish uchun sodda va lo‘nda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug‘atda turkiy so‘z tuzilishi an‘analari, jumladan so‘z tartibi, fe‘l shakllari, so‘z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan. Muallif ko‘rsatishicha, kitob 8 bo‘limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo‘limda ot-ism so‘zlar, fe‘llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. “Devon” da 7500 dan oshiq turkiy so‘z va iboralar izohlangan. “Devon-u lug‘atit turk” ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo‘lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o‘rtacha adabiy tildagi 10–12 so‘zga, shevaga oid bir so‘zga to‘g‘ri ke-ladi, ya‘ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan. Xulosa qilib aytganda, bu asar tilshunoslik imkoniyatlari uchun, til sathlari uchun dastlabki asar sanaladi. Bu asar o‘sha davr islom mintaqasida turkiy adabiy til qancha keng tarqalgani va mustahkam mavqega ega bo‘lganini tasdiqlovchi qat‘iy dalildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T.: O‘qituvchi, 1982.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
3. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
4. Mirzayev .M. Hozirgi zamon o‘zbek tili .Mashqlar to‘plami . Toshkent : O‘qituvchi , 1963 . 143-bet.
5. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Qarshi, 2005.